

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA PROGNOZLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

A.Bekmuratov

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Pedagogika kafedrası
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada akmeologik yondashuv asosida prognozlash kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, shaxsning kasbiy rivojlanish jarayonida prognozlash kompetensiyasining o'rni, uning tarkibiy komponentlari va rivojlantirish usullari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, akmeologik yondashuv shaxsning professional kamolotini ta'minlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: akmeologiya, kompetensiya, prognozlash kompetensiyasi, professional rivojlanish, akmeologik yondashuv, shaxsiy rivojlanish..

Zamonaviy ta'lim tizimida mutaxassislarning professional kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kelajakdagi jarayonlarni oldindan ko'ra bilish, tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantiruvchi prognozlash kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, akmeologik yondashuv asosida prognozlash kompetensiyasini rivojlantirish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Akmeologiya insonning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining eng yuqori cho'qqilariga erishish qonuniyatlarini o'rganadigan fan sifatida prognozlash kompetensiyasini shakllantirish jarayonida samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Akmeologik yondashuv asosida prognozlash kompetensiyasini rivojlantirish shaxsning professional yetukligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu



yondashuv shaxsning intellektual, analitik va refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirish orqali kelajakdagi jarayonlarni samarali prognozlash imkonini beradi. Natijada mutaxassislarning strategik fikrlashi va kasbiy faoliyat samaradorligi oshadi.

Akmeologik yondashuv – bu insonning kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonlarini o'rganadigan hamda uning eng yuqori mahorat va kamolot darajasiga erishishini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy yondashuvdir. Prognozlash kompetensiyani rivojlantirishga akmeologik yondashuvning metodologik asoslari ilmiy tadqiqotlar va psixologik-pedagogik tajribalarga asoslangan. "Akmeologiya" tushunchasi (qadimgi yunoncha "acme" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, eng yuqori nuqta, gullash, yetuklik yoki asosiy vaqt degan ma'noni anglatadi) 1928-yilda N.A. Ribnikov tomonidan ilmiy terminologiyaga yoshga bog'liq psixologiyadagi yetuklik davrini nazarda tutib kiritilgan. Akmeologiya predmeti professional o'sishni, mutaxassislarning ijodiy uzoq umr ko'rishini, shuningdek, kelajakdagi mutaxassislarning professional ko'nikmalarini oshirishga, ularning faoliyatini yaxshilash va takomillashtirishga hissa qo'shadigan sub'ektiv va obyektiv omillarni qamrab oladi. Ob'ektiv omillarga olingan ta'lim sifati kiradi. Subyektiv omillarga shaxsning ko'nikma va qobiliyatlari, ularning mas'uliyat hissi, kompetensiyasi va muammolarni samarali hal qilish qobiliyati kiradi. Professional mukammallikka erishishning eng muhim omillari iste'dod, qobiliyat, oilaviy tarbiya sharoitlari, ta'lim muassasalari va shaxsning o'z tashabbusi hisoblanadi. Akmeologiyaning mavjud gumanitar fanlardan ustunligi shundaki, u insonning butun hayoti va kasbiy yo'lini o'rganadi. Bundan tashqari, akmeologiya professional faoliyatni takomillashtirish masalalarini o'rganadi. Akmeologiya shaxslarning o'z sa'y-harakatlari orqali professionallik cho'qqilariga erishishiga asoslanadi.

Shu munosabat bilan Xatima Shayxova shunday deydi: "Akmeologiya zamonaviy, rivojlanayotgan fan. Uning muhim vazifasi ma'lum bir kasbni yuqori darajaga ko'tarishning turli jihatlarini o'rganishdir." Akmeologiyaning mohiyati insonning har bir kasbni bilim orqali chuqur o'zlashtirishida va uning jamiyat rivojlanishi, milliy farovonlik va ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va huquqiy jihatlariga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini



chuqur tushunishidadir. Bu o'z ijodiy faoliyatini professional burch va mas'uliyatlarini bajarishga bag'ishlash uchun mukammallikka va yetuklikka erishishni o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvning markazida nafaqat shaxs tomonidan ma'lum bilimlarni egallash, balki o'z faoliyatini tahlil qilish, o'zini anglash va o'zini rivojlantirish orqali kompetentsiyani rivojlantirish maqsadi ham yotadi. Akmeologik yondashuv asosan shaxsiy o'sish va professional yetuklikka erishish jarayoniga qaratilgan. Bu jarayon shaxsning o'quv faoliyatini tahlil qilish va ularning yutuqlari va xatolarini o'z vaqtida tan olishlari orqali amalga oshiriladi.

Akmeologik yondashuvning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

kasbiy va shaxsiy rivojlanish – insonning faqatgina nazariy bilimlarini oshirish emas, balki uning kasbiy mahoratini doimiy ravishda rivojlantirish;

yuqori cho'qqiga erishish – har bir inson o'z sohasida eng yuqori natijalarga erishishi mumkinligini ta'kidlaydi;

doimiy o'z-o'zini rivojlantirish – inson o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ustida ishlashi kerak;

innovatsion yondashuv – yangicha fikrlash, ijodiy yondashish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;

Pedagogikada akmeologik yondashuvning ahamiyati shundaki, ushbu yondashuv o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlab, ularga pedagogik mahorat, psixologik barqarorlik va o'qitish texnikalarini takomillashtirish imkonini beradi. Xususan, o'qituvchilar uchun bu yondashuv o'quvchilarga ta'sirchan va samarali dars o'tishda, innovatsion metodlarni qo'llashda va pedagogik texnikani rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Akmeologik yondashuv orqali o'qituvchi doimiy o'z ustida ishlaydi, o'z tajribasini tahlil qiladi va professional rivojlanish sari intiladi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Akmeologik yondashuv o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan va ularning pedagogik mahoratini mukammallashtirishga qaratilgan yondashuvdir. Bu yondashuv orqali ustozlar faqatgina nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanmay, balki o'zining eng yuqori kasbiy darajasiga erishish, o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish va innovatsion

ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar

Akmeologik yondashuv asosida prognozlash kompetensiyasini rivojlantirish — bu shaxsning kasbiy faoliyatda yuqori cho'qqiga erishishini ta'minlovchi tizimli jarayondir. Uning mexanizmlariga o'z-o'zini anglash, kreativ fikrlash, kasbiy refleksivlik kabilar kiradi. Ular motivatsiyani oshirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda natijalarni baholashga yo'naltirilgan.

Shu o'rinda, akmeologik yondashuv doirasida prognozlash kompetensiyasini rivojlantirish quyidagi bosqich va mexanizmlar orqali amalga oshirilsa maqsadga muvofiq.

1) Motivatsion-maqsadli mexanizm. Shaxsda kasbiy kamolotga erishish istagini uyg'otish va kelajakdagi natijalarni oldindan ko'ra olish motivatsiyasini shakllantirish.

2) Refleksiv mexanizm. O'z faoliyatini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarni baholash, shuningdek, kasbiy rivojlanish darajasini (akme) aniqlash.

3) Kreativ-loyiha mexanizmi. Kasbiy vaziyatlarni modellashtirish, muqobil yechimlarni topish va innovatsion usullarni qo'llash orqali prognozlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

4) Monitoring va baholash mexanizmi. Rivojlanish dinamikasini kuzatish, olingan natijalarni prognoz qilingan natijalar bilan solishtirish va tuzatishlar kiritish

Bugungi kunda ta'lim tizimi yoshlardan nafaqat bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni, balki ularni amalda qo'llay olishni ham talab qiladi. Shu bilan birga, shaxsning o'zini anglash qobiliyati, faoliyatiga tanqidiy yondashuv va prognozlash kompetentsiya zamonaviy ta'limning muhim elementlari hisoblanadi. Prognozlash kompetentsiyani rivojlantirishda akmeologik yondashuvning ahamiyati uning shaxsning professional va shaxsiy o'sishini, shuningdek, uning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishini ta'minlash qobiliyatidadir.





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdusodiqova Sh. G'. Akmeologik yondashuv asosida ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik texnikani rivojlantirish. // Inter education & global study. 2025. №3 B.289-296.
2. Исмоилова Д.М. Таълим соҳасида прогноз қилиш илмий-педагогик муаммо сифатида Academic Research In Educational Sciences Volume 1 | Issue 3 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020.
3. Tillayeva G. Fundamentals of Acmeology: textbook /. Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan. - T.: "Tafakkur Bo'stoni," 2014. 192 p.
4. Shayxova X.A. Spirituality - a Mirror of Perfection. - T.: G'afur G'ulom NMIU, 2009. 115 p.

